



## ONA TILI TA'LIMIDA "LESSON STUDY" TEXNOLOGIYASI ASOSIDA "OCHIQ DARSLAR" TASHKIL ETISH METODIKASI VA UNING PISAGA TAYYORLANISHDAGI O'RNI

**Nafisaxon Ismadiyeva**

*ADPI O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi  
magistranti*

**Annotatsiya:** *Maqolada Yaponiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblangan "Lesson study" texnologiyasi asosida dars tashkil etish metodikasi haqida so'z boradi. Ahamiyatli jihatlardan yana biri Yaponiyada pedagoglar almashinuv amalga oshiriladi. Ushbu jarayon qanday amalga oshirilishi haqidagi saavolga kerakli javobni ham ushbu maqoladan topish mumkin. Shuningdek, ushbu maqolada "Lesson study" ta'lim texnologiyasi asosida ochiq dars o'tkazilishi haqida namunalar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Andreas Shlyaxer PISA, Yaponiya ta'limi, "Lesson study", pedagoglar tizimi, ochiq dars tashkil etish, 5-sinf darsligi, sinonim so'zlar, "Kimning kapalagi uchadi", "Ta'rif bering"*

### Kirish

Ma'lumki, xalqaro tadqiqotlar mamlakatlararo har qanday sohalar (siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy) ni solishtirish, o'zaro tajriba almashtirish, yutuq va kamchiliklar aniqlanib, natijalarni taqdim etuvchi tadqiqotdir. Jumladan, ushbu tadqiqot ta'lim sohasida ham keng ko'lamlari rivojlantiruvchi faoliyatlarni amalga oshirmoqda. Ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlarning yutuqlaridan amaliy foydalanish barcha uchun muhimdir. Jumladan, Yaponiya ta'lim tizimi eng yaxshi tajriba orttirish uchun o'z texnologiyalarini taqdim eta oladi.

Xalqaro tadqiqotlar: PISA tashabbuskori hisoblangan Andreas Shlyaxer o'z nutqida quyidagi fikrlarni bayon qiladi: "O'quv dasturlarining o'zini o'zgartirib qo'yish bilan yuqori natija kutish mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Buning uchun o'qitish jarayonini, uning ishtirokchilari bo'lgan o'quvchilar va ularning ota-onalarining dunyoqarashini o'zgartirish lozim." A. Shlyaxerning qarashlari ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqayotgan bizning ta'limiy yo'nalishimiz uchun naqadar ahamiyatli ekanligi ayon. Bunda o'qituvchilar mahorati mahorati, bilim va saviyasining muntazam o'sib borishi hal qiluvchi kuch kabi ahamiyat kasb etadi. Zero, biz o'quvchilarni hozirgi zamon uchun emas, kelajak uchun tayyorlashimiz kerak<sup>39</sup>.

Darhaqiqat o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish eng asosiy masalardan biridir. O'qituvchi hozirgi zamonaviy qarashlarga ega bo'lgan, atrofida ularni chalg'itishga qodir bo'lgan "texnikalar" qurshovida bo'lgan o'quvchilarga "nimani" o'rgatishni biladi, ammo "qanday qilib" o'rgatishni bilmasa, bu ta'limning

<sup>39</sup> Andreas Shlyaxer





vazifasini bajara olmaganini anglatadi. O`qituvchi mahoratini oshirishda turli ta`lim texnologiyalardan foydalanish muhimdir.

Bunda Yaponiya ta`lim tizimida muvaffaqiyatga erishgan "Lesson study" texnologiyasini til ta`limida qo`llash ahamiyatlidir. Lesson study – bu yapon o`qituvchilari o`z amaliyotlarini tizimli ravishda tekshirish uchun ishtirok etadigan kasbiy rivojlanish jarayoni. Uning maqsadi o`qituvchilar o`z o`quvchilariga taqdim etadigan tajribalarning samaradorligini oshirishdan iborat<sup>40</sup>.

Lesson study bizda "ochiq dars" deb ataluvchi pedagogik faoliyatga mos keladi. Yaponiyada "ochiq dars"larda oldindan tizimli tayyorgarlik ko`riladi. Bu o`quvchilar bilan emas, balki o`zaro o`qituvchilar bilan birga amalga oshiriladi. Ahamiyatli jihati shundaki, bunday darslarga o`qitiladigan fani bir xil bo`lgan o`qituvchilar jalb etiladi. Lesson studyda qatnashayotgan o`qituvchilar dars davomida tik oyoqda turadilar va o`quvchilar qanday mashg`ulotni qay usulda bajarayotganlarini erkin holatda kuzatadilar. Tan olish kerakki, bizda ochiq dars ssenariysi deyarli bir xil quyidagicha bo`ladi: o`qituvchi nisbatan "yaxshi" bo`lgan birorta mavzuni rejaga muvofiq bo`lmasada tanlaydi. O`quvchilar ushbu darsga kamida ikki kun tayyorgarlik ko`radi, o`sha mavzu bo`yicha topshiriqlar oldindan muhokama qilinadi va ochiq dars o`tiladigan vaqtda qaysi o`qituvchining vaqti bo`lsa, o`qitadigan fani mos kelmasada, taklif etiladi. Albatta, bunda o`quvchi nimanidir o`rganadi, ammo ochiq darsdan maqsad pedagogik mahorat almashishdir. Masalan, ona tili fanidan o`tkazilayotgan ochiq darsga kimyo fani o`qituvchi taklif etilsa, u pedagog ona tili mavzusi qanday tushuntirilganiga va o`quvchilar topshiriqlarni to`g`ri bajarishganiga qanday qilib baho bera oladi?! Shuningdek, odatda oxirgi partada kuzatuvchi bo`lib o`tiriladi. Ana shuning uchun ham ona tili ta`limiga Lesson studyni olib kirish va qo`llash maqsadga muvofiqdir. Quyida ushbu texnologiyadan foydalangan holda dars ishlanma taqdim etiladi:

Hozirgi ta`lim jarayoni nazariyadan amaliyotga emas, balki amaliyotdan nazariyaga olib kelishi kerak va muhimi o`rganilgan bilim hayot bilan bog`liq bo`lishi kerak. Sinonimlar og`zaki nutqni boyitib, fikrni to`liq bayon eta olishga xizmat qiladi. Ushbu xususiyatlarni inobatga olgan holda ushbu mavzuni o`rganish muhim sanaladi.

Dars mavzusi 5-sinfga mo`ljallanganligi hisobga olingan holda, ko`rgazmali va rang- barang holda tashkil etilishi maqsadga muvofiq. O`quvchilar orasidan biri doskaga taklif etiladi. Unga bir qator savol beriladi va o`quvchining javobi boshq atinglovchilarga eshittiriladi va ko`rsatiladi, ya`ni


O`qituvchi: Yuzingizni ko`rsating! (o`quvchi harakat bilan ko`rsatadi)

O`qituvchi: Betingizni ko`rsating! (o`quvchi harakat bilan ko`rsatadi)

O`qituvchi: Orazingizni (basharangizni, aftingizni, chehrangizni, ruxsoringizni) ko`rsating!..

E`tibor bergan bo`lsangiz, o`qituvchi o`quvchiga anchagina savol berdi, o`quvchi esa har safar bir xil javob qaytardi, aynan mana shu holat sinonimlar sanaladi. Ushbu tadqiqotdan xulosa qilinadi, darslikda keltirilgan "Bir umumiy ma`noni ifodalovchi ikki

<sup>40</sup> Nagoya universiteti doktoranti Ismoilov Husanboy Muhammadqosim o`g`li taqdimotidan





va undan ortiq soʻzlarga sinonim (maʼnodosh) soʻzlar deyiladi,” holda keltirilgan qoida isbotlanadi va buni tushunish oson va unutilmaydi. Dars mavzusini mustahkamlash uchun “Kimning kapalagi birinchi uchadi?” metodidan foydalanish mumkin. Ushbu topshiriqlarning bajarilishini ochiq darsga tashrif buyurgan soha vakillari bevosita kuzatib, baholab borishi mumkin. Bunda oʻquvchilar qoʻliga bir asosli va 4 qanotga ega kapalak shaklidagi tarqatma tarqatiladi, qanotlarning birida sinonimlariga ega soʻz, masalan, “osmon” soʻzi yozilgan boʻladi, kapalak qanotlarini sinonimlar bilan toʻldirgan oʻquvchilar ragʻbatlantiriladi. Masalan, osmon- falak- koʻk- fazo kabi. Bundan tashqari oʻquvchilar yozma savodxonligini oshirish maqsadida “Taʼrif bering” kichik tadqiqotini oʻtkazish mumkin. Bunda oʻquvchilardan yaqin sinfdoshini sinonim soʻzlardan foydalangan holda taʼriflab berilishi talab etiladi. Ushbu mashgʻulot uchun 5 daqiqa yetarli, vaqt oshib ketsa, tadqiqot oʻz ahamiyatini yoʻqotishi mumkin. Bunda oʻquvchidan tez fikrlash, soʻz boyligi, yorqin dunyoqarash talab etiladi. Amalga oshirilayotgan jarayonni darsda qatnashayotgan oʻqituvchilar aylanib, nazorat qilishi mumkin, bu bilan oʻquvchilarning mashgʻulotga boʻlgan eʼtibori, diqqati yana-da jamlanadi. Belgilangan vaqt yakuniga yetgach oʻquvchilar yozganlarini oʻqiydilar va nega aynan ushbu soʻzni tanlaganini isbotlab beradilar. Bu mahgʻulot oʻquvchilarni mustaqil fikrlashga, fikrini bayon eta olishga va oʻz qarashlarini himoya qila olishga oʻrgatadi.

Mavzu boʻyicha darslikdagi mashqlardan ham unumli foydalanish mumkin. “Alisherga sovgʻa qilingan kitob yoʻqolgani yoʻq, **qalbiga** jo boʻlib qoldi. U tirik ekan, **xotirida** yashaydi. Alisher **quvonch** va hayajon bilan oʻrnidan turdi. **Boyadan** beri bolani kuzatib turgan. Sharafiddin mehr bilan uning boshiga qoʻlini qoʻydi- da:” Ilmingni kamol toptir, ilming zeb- ziynating boʻlsin, zeroki, ilm **insonning** yoʻlchi yulduzidir”, - dedi.<sup>41</sup>

Yuqoridagi matn darslikda keltirilib, qalinlashtirilgan soʻzlar uchun sinonim soʻzlarni topish soʻralgan. Oʻquvchilardan gapni bira yoʻla soʻzni sinonimlar bilan almashtirib oʻqish soʻraladi. Bu tez fikrlab, oʻqish savodxonligini oshiradi. Oʻquvchilarga bu talabni bajarish uchun oʻqib tushunish koʻnikmasi kerak boʻladi.

Lesson studying ahamiyatli ekanligini shundan bilib olish ham mumkinki, Jahon lesson study assotsatsiyasi tashkil etilgan va unga bir qator davlatlar (AQSh, Janubiy Afrika, Avstriya, Xitoy, Germaniya, Vengriya kabi) aʼzo hisoblanadi. Shu oʻrinda aytib oʻtish kerakki, Yaponiyada bir oʻqituvchi bir maktabda uzoq faoliyat koʻrsatmaydi, pedagogik mahorat almashinuvini taʼminlash maqsadida ish joylarini oʻzgartiradilar. Aynan mana shu jarayonni bizning taʼlim dargohlarimiz ham qoʻllasa, pedagogik muhitning yangilanib, rivojlanib borishiga amaliy koʻmak bergan boʻlardir. Bizningcha, sir emaski, bir pedagog nafaqa yoshiga qadar bir maktabda ishlaydi va natijada oʻsha maskanda taʼlim jarayoni bir joyda deysinib turaveradi, shuning uchun ham kadrlarning mahoratini almashib turish uchun ham yuqoridagi tajribadan foydalangan maʼqul.

<sup>41</sup> 5- sinf ona tili darsligi. 2020





### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bugungi til ta'limining vazifasi o'quvchi shaxsini rivojlantirishdir. Shaxs ijtimoiy hayotning bir bo'lagidir. Bunda ular faol ijtimoiy muhit ishtirokchilari hisoblanadi. O'quvchilar ushbu jarayonda o'rgangan bilim, ko'nikma, malakalaridan amaliy foydalana olish kerak. Yuqoridagi texnologiyalar o'quvchilarni hayotning bir bo'lagi sifatida rivojlantirib, faol shaxsga aylantirishga xizmat qilishi mumkin. Birinchidan, mustaqil fikrga ega bo'ladilar va uni bayon eta oladilar. Ikkinchidan, uni himoya qilib isbotlaydilar. Uchinchi, og'zaki va yozma savodxonligi rivojlanadi. Shuningdek, ijodkorlik, kreativlikni oshiradi. O'quvchilar uchun qiziqarli dars tashkil etishda har qanday tajribadan foydalanish foydadan holi emas. Tasavvur qiling: 5- sinfdan to maktabni tamomlaguncha necha marta ona tili darsi bo'lishi mumkin. Endi har bir darsni betakror o'tish haqida qayg'uring, chunki hozirgi rang-barang dunyoda diqqatni tortish mushkul muammo. Demak, dars tashkil etishdagi har qanday noodatiylikni chetda qoldirish mumkin emas.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Ta'lim tizimini "Lesson study" texnologiyasi orqali rivojlantirish". Nagoya universiteti doktoranti Ismoilov Husanboy Muhammadqosim o'g'li
2. <https://t.me/milliymarkaz>
3. O'zbek tili o'qitish metodikasi. B. To'xliyev, M. Shamsiyeva, M. Ziyoyeva.
4. Oliy ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. Sh. Yusupova, ma'ruza matn.
5. Darslik. Ona tili. 5-sinf, 2020- yil.
6. Internet saytlari.

